



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TAHALLUSLAR VA LAQABLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Raximjonova Muxtasarxon Madaminjon qizi

Qo'qon Universiteti magistranti

mmraximjonova@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 55 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1168 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS tahallus, laqab, struktura, semantika, struktur tahlil, struktur tilshunoslik, tuzilish, so'z shakli, tashqi tomon, ichki tomon, leksikologiya, birlik, termin.	Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar bir-biri bilan taqqoslanib ularni tilshunoslik nuqtai nazaridan struktur va semantik tahlillari haqida so'z boradi. Jumladan, bu mavzu ingliz va o'zbek adabiyotshunosligi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, asosan ingliz va o'zbek adabiyotida tahallus va laqablar ilan ijod qilgan shoir va yozuvchilarning tanlangan va jamiyat tomonidan berilgan, hurmat va ehtirom darakchisi hisoblanmish tahallus va laqablarning kelib chiqish tarixi va ularning semantikasi o'rganiladi va bu jarayon davomida ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan birma bir struktur tahlil qilib chiqiladi. Bu izlanish orqali tilshunoslikning ham struktur ham semantik tahlil nuqtalari ochib beriladi va natijalar tahlil qilinadi. Bu mavzuni chuqur o'rganish va tadqiq qilish uchun vatanimiz olimlari va chet el, xususan ingliz olimlarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik kitoblaridan foydalaniladi hamda ulardan ba'zi iqtiboslar keltiriladi. Chunki ingliz va o'zbek xalqi va madaniyati bir biridan tubdan farq qiladi va ularning tahallus va laqablarini o'rganish ko'plab bahslarga va xulosalarga sabab bo'luvchi mavzu hisoblanadi. Va shuni aytish joizki, ushbu mavzu o'zining qiziqarliligi va o'ziga xosligi ilan o'quvchi hamda o'z o'rnida tadqiqotchini o'ziga torta oladi.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar millat va yurtning yorqin kelajagini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi keng qamrovli islohotlar jamiyatimizning barcha bo'g'inlarini shuningdek fan va ta'lim jabhalarini ham o'z ichiga qamrab olgan. Bu keng qamrovli islohotlarning asosiy qismi ilm-fanga qaratilgan tahsinga sazovor, negaki, ilmdagi har qanday rivojlanish mamlakat kelajagiga poydevordir. Ilmga ochilgan istiqbolli keng yo'l tufayli, xususan, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andazasidagi zamonaviy metod va uslublarning tatiq etilishi ilmiy salohiyat va tafakkur taraqqiyotiga ham xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy tilshunosligimizda va adabiyotshunosligimizda ham turli yangicha yo'nalishlar va konsepsiyalarni paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Har bir tilning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari bo'lgani kabi ingliz va o'zbek tillarida ham o'ziga xos o'xshashliklar va albatta farqli jihatlari bisyor. Xususan, bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablarning o'ziga xos birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini muhokama qiladigan bo'lsak unda shaxsiy nomlar tahalluslar va laqablar muhim o'rin tutadi. Tahallus va laqablar asosan insonlarning shaxsiyati, muhim xarakter xususiyatlari va ijtimoiy mavqeini o'zida aks ettiradi. Bu ikki tilde ya'ni ingliz va o'zbek tillarida ularning qo'llanilishi, tanlanilishi va struktur va semantik tahlili albatta farq qiladi chunki ikkala tilning ham bu ism va nomlarga o'zining madaniyati, sotsial tarkibi va mentalitet kabi asosiy mezonlari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu o'rinda O'Imas Sharipova va Ibrohim Yo'ldashevlar o'zlarining "Tilshunoslik asoslari" tilshunoslik nazariyasiga asoslangan kitoblarda quyidagi jumalarni keltirib o'tishgan: "Til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtayi nazaridan farqli-farqli ma'nolarni ifodalasada bir biri bilan uzviy bog'langandir. Tilni xalq yaratafi va o'z navbatida, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o'z navbatida o'z izlarini birinchi galda, tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi."¹ Bu purma'no tushunchalarni biz o'z fikrimizning yorqin va mustahkam dalili sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yuqorida keltirilganidek jamiyatda, davlatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar albatta birinchi o'rinda davlat va jamiyat tiliga ta'sir krsatadi, xususan tahalluslar va ismlarga ham. Shuning uchun ham bu ikki tildagi tahalluslar va laqablarning bir-biridan farqli jihatlari bisyor. Va ularning strukturasi va semantikasiga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tahalluslar va laqalarning bu xususiyatlarini tilshunoslik nazariyasi chuqur tahlil qili beradi va bunda ham biz bu ikki tildagi nomlarning qator farqli jihatlari ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslikda strukturalizm tillarning tashqi tuzilishini ularning tarkibini o'rgansa, semantika esa so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini ya'ni ularning ma'no jihatdan tahlillarini ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahallus va laqablarning tahlili metodologik jihatdan ikki asosiy yo'nalishda – adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahallus va laqablar, ayniqsa, o'zbek adabiyotida buyuk shaxslar va yirik adabiyot namoyandalari hurmat-ehtirom sifatida berilgan bo'lib, ularni o'zbek adabiyoti asarlari orqali o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunda H. D. Abdullayevning O'zbek adabiyoti tarixi o'quv qo'llanmasi muhim manba sifatida qoraladi. Ushbu qo'llanmada qadimdan tahallus va laqab bilan ijod qilgan adabiyot namoyandalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, Ibrohim Sultonov tomonidan yozilgan Adabiyot nazariyasi kitobida ijodkorlarning tahalluslari ilmiy asosda o'rganilgan bo'lib, bu asar tahalluslarning adabiy va badiiy funksiyalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Tohir Qorayevning Tahalluslar nomli asarida tahalluslarning shakllanish jarayoni, ularning adabiy-estetik vazifalari va tarixiy o'zni batafsil tahlil qilingan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahalluslar va laqablarning morfologik, sintaktik hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada tahalluslar va laqablarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish uchun struktur tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlar asosiy manba sifatida foydalaniladi. Jumladan, Abdulhamid Nurmonovning Struktur tilshunoslikning ildizlari va yo'nalishlari nomli magistrantlar uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida tilshunoslikning struktur tahliliga oid muhim nazariyalar yoritilgan. Tilshunoslik fanida muhim o'rin tutuvchi olimlardan biri Ferdinand de Sossurening Umumiy tilshunoslik kursi asarida so'zlarning struktur va semantik jihatdan tahlili hamda bu boradagi nazariy yondashuvlar keng muhokama qilingan.

Ingliz tili va adabiyotida tahalluslar va laqablarning o'rganilishi ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada qator ingliz tadqiqotchilarining asarlari ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Jumladan, The Oxford Companion to English kitobida ingliz adabiyotining umumiy taraqqiyoti bilan birga, tahallus ishlatgan yozuvchi va shoirlar haqida ham ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, Virjiniya Vulfning A Room of One's Own (1929) asarida ayol yozuvchilarning, xususan, tahallus ishlatgan ijodkorlarning o'ziga xos yondashuvlari haqida fikr yuritilgan. Ingliz olimi Margaret Atwood esa Negotiating with the Dead: A Writer on Writing (2002) nomli asarida ijodiy shaxsiyat va tahallus ishlatish sabablari haqida atroflicha tahlil yuritgan.

Umuman olganda, tahalluslar va laqablarning metodologik tahlili adabiyotshunoslik va tilshunoslikning turli nazariy yondashuvlarini o'z ichiga olib, ularni madaniy, tarixiy va lingvistik kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bu boradagi tadqiqotlar tahallus va laqablarning jamiyatdagi kommunikativ hamda sotsiomadaniy funksiyalarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida bu mavzu

¹ O'Imas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" -Toshkent 2006. -B18-19.

bo'yicha adabiyotshunoslik, lingvistika va sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan kompleks tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari. Dunyoda tillar ko'p va har bir til o'zining o'z nomlash tizimiga ega bo'lib, unda shaxsiy nomlar, ismlar, tahalluslar va laqablar muhim o'rin tutadi. Tahallus va laqablar asosan insonlarning shaxsiyati, kasbi, ijtimoiy mavqei yoki xarakteristik xususiyatlarini ifodalash uchun va buyuk va mashhur shaxslarga jamiyatda hurmat ehtirom ko'rsatish uchun foydalaniladi. Bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar struktur va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Birinchi o'rinda tahallus va laqabning lug'aviy ma'nolarini ko'ri chiqadigan bo'lsak, tahallus u adabiyotda shoir yoki yozuvchi tomonidan qo'llaniladigan tahallus yoki ijodiy laqabdir. Badiiy adabiyotlarda odatda shoir va yozuvchilar o'z asarlarining oxirida tahalluslarini qo'llaganlar. Masalan, o'zbek adabiyotida Navoiy Nizomiddin Mir Alisherning tahallusi hisoblanadi u adabiyotda bu tahallusdan o'z asarlarini oxirida foydalanib ketgan. O'zbek adabiyotida ko'plab shoir va yozuvchilar tahallus bilan ijod qilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Bobur", Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li "Ogahiy", Komil Xorazmiy "Komil", Muhammad Aminxo'ja Muqimiy "Muqimiy", Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat "Furqat", Hamza Hakimzoda Niyoziy "Niyoziy", Abdulla Qodiriy "Julqunboy" tahalluslaridan o'z asarlarida foydalanishgan va bu bilan ular o'zek adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ingliz adabiyotida ham tahallus bilan qalam tebratgan shoir va yozuvchilar ham bisyor bo'lib, masalan Samuel Langhorne Clemens o'z asarlarida "Mark Twain" tahallusi bilan, Eric Arthur Blair "George Orwell", Robert Galbraith "J.K.Rowling", Charles Lutwidge Dodgson "Alice's adventures" asarini "Lewis Carroll" tahallusi bilan yozgan. Victoria Lucas "Sylvia Plath", B.H. Dias "Ezra Pound" tahallusi bilan ijod qilgan. Ingliz adabiyotida mashhur bo'lgan Charlotte, Emily va Anne Bronte o'zlarini jinsini yashirish maqsadida "Currer", "Ellis" va "Acton Bell" tahalluslari bilan ijod qilishgan.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib ingliz va o'zbek adabiyotida laqablarni bir-biriga solishtirish uchun ikkala tilning ham adabiyoti bilan chuqur tanishib chiqish lozim. Laqab – insonning ismi bilan birga yoki uning o'rnida ishlatiladigan sharafli yoki tavsifiy nom hisoblanib, odatda u ko'proq xalq tomonidan beriladi buyuk va mashhur shaxslarga hurmat va ehtiromni ifodalash uchun. Laqab odatda insonning xulq-atvori, qiyofasi yoki kasbi bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek adabiyotida va tarixida laqab bilan nom qozongan va xalqqa tanilgan ko'plab buyuk shaxslar va shoirlar, yozuvchilar bor. Masalan, ilm-fan va adabiyotsohasida o'z tahalluslari bilan nom qozongan ijodkorlar qatoriga Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy va Abdurauf Fitrat kabi uyuk shaxslarni qo'shishimiz mumkin. Tarixda o'z tahalluslari bilan nom qozongan tarixiy mashhur shaxslarga misol tariqasida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek va Pahlavon Mahmud kabi mard va jasur insonlarni ko'rsatishimiz mumkin. Abu Rayhon Beruniy "Sharq Aristoteli" nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan bo'lsa, Abu Ali Ibn Sino "Shayx ur-Rais" ya'ni "olimlarning yetakchisi" tahallusi bilan nom taratgan. Mahmud az-Zamaxshariy esa o'z asarlarida "Faxr Xorazm" ya'ni "Xorazmning faxri" tahallusidan foydalangan. Abdurauf Fitratga esa o'zbek xalqi "Turon shoiri" deya ulug' nom bilan atagan. Amir Temur "Sohiqiron" nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Mirzo Ulug'bekni esa "Sulton ul-munajjim" deb atashgan. Jaloliddin Manguberdi esa "Sher sulton", "Turon yo'lbarisi" omlarini olgan. Pahlavon Mahmudni esa "Xivalik Bahodir" deb atashgan. Bu shaxslar o'z faoliyatlarini va iste'dodlari bilan tarixda va o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Ingliz tilida laqab "nickname" deb nomlanadi va bu xalqda ham laqab o'zbek laqablariga o'xshash bo'lib, inglizlar ko'pincha o'zlarini tanlab oladi va jamiyatda bu laqabdan keng foydalanishadi. Ingliz tilida laqablar ikkiga bo'linadi odamlar uchun laqablar va guruhlar va har xil guruhlar ham o'ziga xos laqalari bo'ladi. Masalan, ingliz tilida shaxslar uchun Ann, Lucy, Emily, Rose, John, Jack kabi laqablar xalq orasida mashhur. Ingliz tarixida mashhur qiroli King Richard 1 "Dick" laqabi bilan tanilgan, Edward Kennedy esa "Ted Kennedy" laqabi bilan, Robert Frost "Bob" laqabi bilan mashhur. Inliz xalqi orasida mashhur bo'lgan guruhlar va millarlarning mashhur laqalari misolida ko'ri chiqadigan bo'lsak "Brits" bu laqab Britaniya millatiga mansub bo'lgan barcha odamlarga nisbatan ishlatiladi. "The Redcoats" nomi esa barcha ingliz askarlariga tegishli bo'lib, bu nom ularning kiyimlari rangidan keli chiqqan. Ya'ni ularning kiyimlari qizil rangda bo'lgan shuning uchun ularni hamma tarixda "The Redcoats" ya'ni "Qizil kiyimlilar" deb nomlashagan. "Scousers" laqabi esa

Liverpoldan kelgan odamlarga nisbatan ishlatilgan. Ingliz va o'zbek tillarida tahallus va laqablar o'zining tarixiy, madaniy va lingvistik xususiyatlariga ega bo'lib, inliz tilida ko'pincha qisqartma shakllar yoki o'xshashlik asosida nomlash kengtarqalgan ("The Rock" Dwayne Johnson). O'zek tilid aesa tarixiy nomi va adabiy qoidalar muhim o'rin tutadi ("Bobur" Zahiriddin). Yuqoridagi fikrlarimizga asos tariqasida Asatullayev Alisher Asatullo o'g'lining maqolasidan quyidagi jumalarni keltirishimiz mumkin: "Taxallus qo'llashning yana bir jihati shundaki, o'tmishda shoir asarlarini xalq orasida tarqalishida hofizlarning xizmati katta bo'lgan. O'tmishda xalq orasida kuylanayotgan g'azal kimniki ekanligini taxallus orqali bilib olishgan.

Ikkinchidan, g'azallar o'zining vazni, mavzu, qofiyasi va radifi bilan bir-biriga o'xshaganligi sababli, taxallussiz she'r kimning qalamiga mansub ekanligini bilish noma'lum bo'lib qolgan. Shunda bu g'azalning kimga tegishli ekanligini unda qo'llangan taxallus aniqlab bergan.

Uchinchidan, she'riyat terminining binokorlikka nisbat berilishi, she'r tuzilishining uy qurilishiga o'xshatilishi ayrim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Jumladan, bayt-uy, rukun-ustun, tarse-ayvon va hokazo. Modomiki, shunday ekan, binoni nihoyasiga yetkazgan me'mor amalining kimga tegishli ekanligini ham qayd etadi.² Yuqoridagi tahallus va laqablarning struktur-semantik tahlili bilan yuzlanadigan bo'lsak, tilshunoslikda struktur tahlil - bu til birliklarini ularning tuzilishi va ularning o'zaro aloqalarini o'rganadigan bo'limidir. Bu tahlilda so'zlar sintaktik, morfologik va fonologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tilshunoslikda struktur termini so'zning tuzilishi degan ma'noni anglatadi. Bu maqolada asosan tahallus va laqablarning tuzilish jihati birinchi tahlil qilini olinadi. Ularni struktur tomondan tahlil qilinayotganda asosan struktur tilshunoslikning uch asosiy xususiyati inobatga olinadi. Bulardan birinchisi formal yondashuv bo'lib, bu so'z va gaplarning ma'nosidan ko'ra ularning tuzilishiga e'tibor qaratadi. Ikkinchi asosiy xususiyati esa tizimlilik bo'lib, bunda tilning barcha elementlari bir-biri bilan bog'liq tizim sifatida qaratiladi. Uchinchisi asosiy xususiyati esa struktur komponentlarga ajratish bo'lib, bunda so'z, gap va fonemalar tahlil qilinib, ularning o'zaro aloqalari ko'rib chiqiladi. Bu terminlarni tahlil qilishda struktur tahlilning asosiy yo'nalishlari bilan ham yondashiladi. Struktur tahlilning asosiy yo'nalishlaridan eng birinchisi fonologik tahlil bo'lib, bunda tahallus va laqablarning tovushlar tizimi tomonidan tahlil qilinib chiqiladi. Ikkinchi asosiy yo'nalishi esa morfologik tomondan tahlil qilish bo'lib, bunda tahallus va laqablarni tuzilishi va ularning shakli jihatdan tahlil qilinadi. Uchinchisi muhim yo'nalish esa sintaktik tahlil bo'lib, bunda yuqoridagi terminlarning tuzilmalari va tarkibiy qismlari o'rganiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni bir qator mamlakatimiz va chet el tilshunos olimlari o'zlarining asarlari va kitoblarida nazariy jihatdan tahlil qilib asoslaganlar. Shu jumladan, Shveysariyalik tilshunos, zamonaviy tilshunoslik va struktur tilshunoslikning asoschilaridan biri hisoblangan Ferdinand de Sossyur o'zining "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) kitobida tilning struktur tahliliga shunday ta'rif beradi: "Til tahlili ikki qismdan iborat bo'ladi uning tuzilish ya'ni sintaktik shakli va uning ma'no shaklidan".³ Demak bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, tahalluslarni struktur tahlil qilishda ularning tashqi tomoni ya'ni ularni shakl jihatdan tahlil qilinadi. Ya'ni ularning qanday yasalgani, sintatik, fonologik va morfologik jihatidan tahlil qilinadi. Tahallus va laqablar struktur tahlil qilinish jihatidan uch guruhga bo'linadi:

1. Odiy shakldagi tahalluslar
2. qisqartirilgan shakldagi laqablar
3. Metaforik tahalluslar

Masalan, Navoiy, Bour, Fuzuliy, Zarif yuqorida keltirilgan tahalluslar oodiy tub o'zakdan tashkil topgan adabiy tahallus va laqablarga misol bo'la oladi. Temur, Buyuk, Sulton kabi tarixiy laqablar ham odiy shakldan yasalgan tahalluslarga misol bo'ladi.

Tahalluslar va laqablarni semantik jihatdan tahlil qilish uchun, avvalo, "semantika" tushunchasining mohiyatini anglash zarur. Semantika – tilshunoslikda ma'no haqidagi fan bo'lib, so'zlarning semantik jihatdan tasnifi, ularning lug'aviy va kontekstual ma'nolarini o'rganadi. Ushbu yo'nalish tahallus va laqablarning jamiyatdagi lingvistik hamda madaniy funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda tahallus va laqablarning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy roli mavjud. Masalan, o'zbek jamiyatida laqablar ko'pincha shaxsiy aloqalar, hurmat va ehtirom ifodasi sifatida ishlatiladi, ingliz madaniyatida esa ular mashhurlik yoki kinoyaviy ifoda vositasi sifatida

² Asatullayev Alisher Asatullo o'g'li ToshDO'TAU talabasi "O'zbek adabiyotida tahalluslar" nomli maqola. 2023

³ Ferdinand de Sossyur "Umumiy tilshunoslik kursi". -1916. -B 40-41

keng qo'llaniladi. She'riyat va adabiyotda tahalluslar ijodiy ifodaning ajralmas qismi hisoblanib, muallifning shaxsiy uslubini aks ettiradi. Masalan, ingliz adabiyotida O. Henry tahallusi bilan ijod qilgan yozuvchi aslida William Sydney Porter nomi bilan tanilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida Cho'lpon nomi bilan mashhur bo'lgan ijodkor Abdulhamid Sulaymon o'g'li edi.

Zamonaviy ommaviy madaniyatda tahalluslar shaxsiy brend va imidj yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Eminem sahna nomi ostida tanilgan qo'shiqchi aslida Marshall Bruce Mathers III bo'lib, uning taxallusi uning san'atdagi shaxsiy identifikatsiyasining bir qismidir. Xuddi shuningdek, futbol yulduzi Cristiano Ronaldo ham CR7 brendi orqali dunyo miqyosida tanilgan.

Tahallus va laqablarning tarjimai jarayonida ma'no yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi ehtimoli mavjud. Masalan, Iron Lady iborasini to'g'ridan-to'g'ri "Temir ayol" deb tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, aslida

bu tahallus nafaqat kuch va qat'iyat ramzi, balki siyosiy yetakchilik timsoli sifatida ham ishlatilgan. Shu bois, bunday tahalluslarni tarjima qilishda kontekstual va semantik jihatlarni hisobga olish zarur.

Buyuk britaniyalik tilshunos, professor va semantika sohasi bo'yicha mutaxassis David Crystal so'zlarning ma'nosi haqida shunday fikr bildiradi: "Ma'no – bu so'zlarning ortidagi tarix va his-tuyg'ular yig'indisidir." Xuddi shunday, ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar ham shaxsning ijtimoiy mavqei, tarixiy o'rni va jamiytdagi nufuzidan kelib chiqib shakllanadi. Ularning ortida ma'lum bir yashirin tarixiy ma'no, hissiy ko'rinish va madaniy ahamiyat yotadi. Shu nuqtayi nazardan, tahalluslar va laqablarning semantik tahlili lingvistika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvalda o'zbek xalqida o'zining tahallus va laqablari bilan nom taratgan uyuk shaxslar ismlari, tahalluslari va ularning ma'nolari keltirilgan:

1-jadval. O'zbek tilida tahalluslarning semantik tahlili

T/r	O'zbek jamiyatida asosiy tahallus va laqab bilan mashhur bo'lgan buyuk shaxslar	Ularning qo'llagan tahallus va laqablari	Tahallus va laqablarning ma'nolari
1.	Alisher Navoiy	Navoiy	Navo-kuy,ohang
2.	Abu Rayhon Beruniy	Sharq aristoteli	G'arb Aristoteliga tenglashtirilib berilgan nom
3.	Amir Temur	Sohibqiron	Uch yulduz (Saturn, yupiter, mars) bir chiziqqa tushgan paytda tug'ilgan buyuk sarkarda
4.	Zahiriddin Mhammad Bobur	Bobur	Sher
5.	Boborahim Mashrab	Mashrab	Haroratli, jo'shqin
6.	Abdulhamid Sulaymon o'g'li	Cho'lpon	Eng yorqin yulduz
7.	Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li	Ogahiy	Xabardor, ogoh
8.	Abu Ali Ibn Sino	Shayx ur-Rais	Olimlarning yetakchisi
9.	Jaloliddin Manguberdi	Turon yo'lbarsi	Jasur
10.	Mahmud az-Zamaxshariy	Faxr Xorazm	Xorazmning faxri

Ingliz adabiyotida ham bir qator yozuvchi va shoirlar tahalluslar orqali Qalam tebratishgan bo'lib quyidagi jadval orqali ularning asl ismi va tahalluslari ma'nolarini ko'rishimiz mumkin:

2-jadval. Ingliz tilida tahalluslarning semantik tahlili

Ingliz adabiyotida mashur yozuvchilar	Tahalluslari	Ma'nolari
Samuel Clemens	Mark Twain	Chuqurlik
Mary Ann Evans	George Eliot	O'z jinsini yashirish uchun ishlatilgan
Eric Arthur Blair	George Orwell	'Ovell' daryosi nomidan olingan
William Shakespeare	The Bard of Avon	O'zi tug'ilgan shahar nomidan olingan
Geoffrey Chaucer	Father of English Literature	Ingliz adabiyoti otasi
Oscar Wilde	The Aesthete	Estetik harakatning asosiy vakili
John Ketas	The Romantic Poet	Romantik shoir
J.K. Rowling	Robert Galraith	Fantastik asar yozuvchi
Charles Lutwidge Dodgson	Lewis Carroll	O'z ismining lotincha shakli
Charlotte, Anne and Emily Brontes	Currer Bell, Acton Bell and Ellis Bell	Mashhur opa singil yozuvchilar o'z jinslarini yashirish maqsadida

Yuqoridagi jadvallarda o'zbek va ingliz adabiyotidagi mashhur yozuvchi va shoirlarning asl ismi bilan tahallus va o'zlari va xalq tomonidan berilgan laqablari keltirilgan bo'lib, ularning semantik jihatdan tahlilini ham ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytilganidek bu tahallus va laqablar buyuk shaxslarning ichki tuyg'ulari, hislari va jamiyatdagi o'rni, ba'zan orzu va armonlarini ham anglatib keladi. Jadvalda keltirilganidek, ko'proq ayol yozuvchi va shoirlar o'z jinsini yashirish maqsadida o'zga jins vakili ismlaridan foydalanishgan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tahallus va laqablar har ikki tilda ham faqatgina shaxsiy identifikatsiya vositasi bo'libgina qolmay, balki ularning lingvistik va madaniy xususiyatlarini ham ochib beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan tahallus va laqablarning shakllanish jarayoni ularning morfologik tuzilishi, semantik xususiyatlari va sintaktik funksiyalaridan kelib chiqqan holda farqlanadi. O'zbek tilidagi laqab va tahalluslar ko'proq ijtimoiy mavqe, tabiat hodisalari va his-tuyg'ular bilan

bog'liq bo'lsa, ingliz tilidagi ekvivalentlar shaxsiy tajriba, tarixiy jarayonlar va badiiy-estetik jihatlar asosida shakllanganligi kuzatiladi.

Shuningdek, tahallus va laqablarning semantik tahlili natijasida ularning faqatgina shaxsiy xususiyatlarni emas, balki ijtimoiy-madaniy va tarixiy jarayonlarni ham o'zida aks ettirishi aniqlangan. Masalan, o'zbek adabiyoti va xalq orasida tarqalgan laqab va tahalluslar milliy mentalitet, urf-odatlar hamda ramziy obrazlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxsiylikdan ko'ra umumijamoaaviy identifikatsiyaga urg'u beradi. Ingliz adabiyotida esa aksincha, laqab va tahalluslar asosan individual o'ziga xoslik, ijodiy uslub hamda shaxsiy identifikatsiya jarayonini aks ettiradi.

Mazkur tadqiqot ikki tilda tahallus va laqablarning shakllanish qonuniyatlari, ularning jamiyatdagi kommunikativ hamda sotsiomadaniy funksiyalarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlar ushbu lingvistik birliklarning madaniyatlararo xususiyatlarini yanada kengroq tahlil qilish imkonini beradi va ularning antropologik, sotsiolingvistik hamda tarixiy jihatdan o'rganilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asatullayev Alisher Asatullo o'g'li ToshDO'TAU talabasi "O'zbek adabiyotida tahalluslar" nomli maqola. 2023
2. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" - Toshkent 2006. -B18-19.3. Ferdinand de Sossyur "Umumiy tilshunoslik kursi". -1916. -B 40-41
3. David Crystal "How language works" (2005).
4. Abdulhamid Nurmonov "Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari". "Ta'lim" nashriyoti Toshkent – 2009.
5. H.D. Adullayev "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent -2020.
6. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" Toshkent -2006. 8. Omonov, M. (2020). Madaniyat va til: Ismlar, laqablar va tahalluslarning milliy xususiyatlari. Toshkent: Akademnashr.
7. Muminov, R. (2018). Tahalluslar lingvistikasi: Ingliz va o'zbek adabiyotining qiyosiy tahlili. Toshkent: Fan.
8. Watt, H. (2015). Pseudonyms and Pen Names: The Cultural Significance of Literary Aliases. Routledge.